

QISQA UMR KO'RGAN MUXTORIYAT

Mamatova Mavluda Toyirovna

NavDPI Tarix fakulteti 3 - kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida sovet rejimidan mustaqil Muxtoriyat tashkil etish, xalqlarning azaliy orzusi bo'lgan demokratik davlat tuzish jarayoni qisqacha bayon etilgan. Tarixda Turkiston Muxtoriyati nomini olgan bu davlat atiga 72 kun umr ko'rgan va o'z faoliyati davrida amalga oshirgan o'zgarishlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiston Muxtoriyati, jadidlar, „Oyna” jurnali, Fitrat, Behbudiy, „Ulug' Turkiston” gazetasi, Ta'sis majlisi, Sherali Lapin, qurultoy, „Murajaatnoma”, Mustafo Cho'qay, qizil armiya, 72 kun.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье кратко освещен процесс установления независимой от советской власти на земле Туркестанской земли, создания демократического государства, которое является вечной мечтой народа.*

Ключевые слова: *Автономия Туркестана, новости, журнал «Ойна», Фитрат, Бехбуди, газета «Улуг Туркестан», Учредительное собрание, Шерали Лапин, съезд, Петиция, Мустафа Чокай, Красная Армия, 72 дня.*

KIRISH

Turkiston 1917-yilda muhim siyosiy o'zgarishlar arafasida turar edi. Mintaqa xalqlari Rossiyaning mustamlaka zulmidan charchagan edi. 1917-yil boshlarida Petragrada yuz bergan voqealar Turkistonga yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun qizg'in harakatga turtki bo'ldi. Bu harakatlar safida jadidlar turar edi. Ular xalqni tarixini yodga olishga mustaqil davlat bo'lishga chaqirdi. Jadidlar milliy g'oyasining muhim tarkibiy qismida tarixiy ongni rivojlantirish, tarixdan saboq chiqarish turar edi. Abdurauf Fitrat 1917-yilda bu haqida shunday degan edi „Tarix millatning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulini o'rganadigan ilmdir”. Turkiston jadidlar otasi Mahmudxo'ja Behbudiy „Oyna” jurnalida shunday yozgan edi „Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmay turg'onlar „qul-marquq derlar” deb ta'kidlagan. [1]

Bu davrda Rossiyani inqiloblar qamrab olgan, ayniqsa, fevral inqilobdan so'ng jadidlar yanada faollashdilar. Ular „Muxtoriyat” tuzish g'oyasi bilan chiqdilar. Turkiston milliy demokratlari tomonidan taklif etilgan „muxtoriyat” mafkurasi jahon va mintaqaviy mustamlakachilikka qarshi harakat edi. Toshkentda 17-20-sentabrda turkistonlik va qozoq musulmonlari syezdi bo'lib o'tdi. Unda Turkiston, shuningdek, Ural va Turg'ay viloyatlaridan 500 dan ziyod vakil ishtirok etdi. Qurultoyda Sho'roislomovchilar yo'l boshchisi Sherali Lapin kirish nutqini so'zladi. Uni kun tartibiga o'qib eshittirdi. Syezdda quyidagi masalalar qamrab oldi.

1. Turkiston o'lkasining bo'lg'usi siyosiy qurilishi

2. Oziq -ovqat masalasi
3. Yer va suvdan foydalanish
4. Sud masalasi
5. Maktab masalasi
6. Masjidlarni boshqarilishi
7. Vaqf masalasi
8. Zemstvo haqida
9. Xotin-qizlar masalasi
10. Musulmon siyosiy partiyalari
11. Musulmon o'lkasini qayta tuzish
12. Musulmon alohisini ma'muriy boshqarishga jalb qilish
13. Ta'lim majlis va boshqalar.

„Ulug' Turkiston” gazetasi yozishicha „syezd Mulla Muhammahoji Eshon va Mulla Siddiqhoji eshonlarning boshqaruv shakli haqidagi ma'ruzalarini tinglab, bir ovozdan Turkiston Muxtoriyatni ta'lim etishga qaror qildi. Bu Turkiston o'lkasi „Mahalliy va milliy muxtoriyatni e'lon qiladi, o'z ishlarini o'zi mustaqil hal etadi” degani edi. [2]

Aynan shu masalada 1917-yilda bir nechta Qurultoylar bo'lib o'tdi. Ulardan biri Turkiston o'lkasini Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi. Shuningdek, Qurultoyda Ta'lim Majlis chaqirilgunga qadar hokimiyatni Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Milliy Majlisi qo'lida bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Qo'qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi ochilishi arafasida 25-noyabr kuni kech soat 19.00da „Sho'royi Islomiyaning Qo'qondagi qarorgohida majlis bo'lib o'tdi. Majlisda quyidagi asosiy muammolar ko'rib chiqildi. O'lkada boshqaruv tizimi va sovet hokimiyati bilan barcha munosabatlarni o'zish va rejalashtirilayotgan aksilbolshhevistik Janubi-Sharqiy Ittifoq tarkibiga kirish taklifiga nisbatan o'z munosabatini belgilash, Turkiston ijroiya qo'mitalariga saylovlar, Turkiston Markaziy Musulmonlar sho'rosini qayta saylash Turkistoda qonunchilik hokimiyatini yaratish, Turkiston Ta'lim Majlisini chaqirish va boshqalar[3]

Shunday qilib qiyinchiliklar bilan Qo'qon shahrida 1917-yil 26-28-noyabr kunlari (yangi hisob bilan 9-11-dekabr) bo'lib Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida aynan 27-noyabr (yangi hisob bilan 10-dekabr) kuni yarim tunda bo'lgan majlisda Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil qilindi. 28-noyabrda (yangi hisob bilan 11-dekabrda) tarkib topayotgan mazkur davlat nomini, Turkiston Muxtoriyati deb atadilar. Muvaqqat hukumat tarkibiga 8 kishi saylandi.

1. Muhammadjon Tinishboyev bosh vazir, ichki ishlar vaziri
2. Islom Shoahmedov bosh vazir o'rinbosari
3. Mustafu Cho'qay tashqi ishlar vaziri
4. Ubaydulla Xo'jayev harbiy vazir
5. Yurali Agayev yer va suv boyliklari vaziri

6. Obidjon Mahmudov oziq-ovqat vaziri

7. Abdurahmon O'razayev ichki ishlar vaziri

8. Solomon Gersfeld moliya vaziri keyinchalik ular tarkibida o'zgarish yuz berdi. Muhammadjon Tinishboyev o'rniga Mustafo Cho'qay bosh vazir etib tayinlandi. Endi ozgina Turkiston muxtoriyati hukumati vakillariga ozgina to'xtalsak, Muhammadjon Tinishboyev (1879-1939) davlat va jamoat arbobi hisoblanadi. 1889-1900-yillarda Verniy erkaklar gimnaziyasida, 1900-1906-yillarda Sant-Peturburg Imperatorlik institutida o'qidi. 1907-yil II chaqiriq Rossiya Davlat dumasiga deputat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil topgach esa bosh vazir va ichki ishlar vaziri etib saylandi.

Mustafo Cho'qay (1890-1941) davlat va jamoat vakili bo'lib Turkiston mustaqilligi uchun izchil kurashgan shaxslardan biridir. Mustafo Cho'qay dastlabki bilimni Oqmachitda olgach, Toshkentdagi erkaklar gimnaziyasida o'qidi. Sankt-Peterburg Universiteti Yuridik fakultetini tugatgan. Mustafo Cho'qay 1916-1917-yillarda Rossiya IV davlat dumasida musulmonlar fraksiyasida kotib bo'lib ishlaydi. Mustafo Cho'qay 1917-aprel oyida Petrograddan Toshkentga qaytadi va Turkistondagi bo'layotgan o'zgarishlar markazida turadi. Ubaydulla Xo'jayev (1886-1942) Turkiston jadidchilik harakati yetakchi namoyondalaridan biri. Saratovdagi huquqshunoslik institutida o'qigan. Talabalik davridayoq jamiyatlardagi muammolarni yechishni o'ylab, rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan. U Toshkentda 1914-yilda „Sadoyi Turkiston“ gazetasini tashkil qilib, unda muharrirlik qilgan. Toshkentda tuzilgan „Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi“ning raisi. (1916). Turkiston Muxtoriyati tuzilgan harbiy vazir lavozimida faoliyat yuritgan. U bir necha bor sovet hokimiyati tomonidan qamoqqa olingan (1918, 1929, 1931, 1938). U Kotlasdagi qamoqxonada 1942-yil 31-oktabrda halok bo'ladi. O'limidan so'ng oqlanadi.

Yurali Agayev (1880-1918) davlat va jamoat arbobi. Farg'ona vodiysida tug'ilgan. Turkiston Muxtoriyatida yer va suv boyliklari vaziri lavozimida ishlagan 1918-yil fevral oyida Qo'qon o'qqa tutilgan vaqtida Mustafo Cho'qay yonida Yurali Agayev ham bor edi. Biroq Qo'qonda Bolshheviklar harbiy kuchlariga qarshi bo'lgan jangda halok bo'ladi. Obidjon Mahmudov Marg'ilonda 1871-yilda tug'ilgan. Uning otasi Abduholiq asli buxorolik bo'lgan. Sankt-Peterburg universitetining tog'-kon muhandislik fakultetini tamomlagan. Farg'ona vodiysidagi bir nechta konlarni ochilishida ishtirok etgan. Sho'rusvdagi oltingugurt konini sotib olgan. Turkiston Muxtoriyati tashkil topgach esa oziq-ovqat vaziri lavozimida ishlagan. [4]

1917-yil 26-noyabrda soat 12.00 da tashkiliy byuro a'zosi Mustafo Cho'qay syezdni ochiq deb e'lon qildi. Mandat komissiya a'zosi Toshpo'lat Norbo'tabekov ishtirokchilarni delegat tarkibi haqidagi ma'lumot bilan tanishtirdi. Bu paytga kelib syezd tarkibida: Farg'onadan 150 kishi, Sirdaryodan 22 nafar kishi, Samarqanddan 21, Kasbiy Ortidan bir, Buxorodan 4 nafar delegat ishtirok etdi. Keyinchalik syezd ishtirokchilari soni 250 nafarga yetdi. Bu haqida „Ulug' Turkiston“ gazetasida yozilgan.

Delegatlar orasida shahar dumasi vakillari ham, tatarlarning Turkiston byurosi vakillari ham, o'lka yahudiy tashkiloti-Paoliy Siondan ham, shuningdek, mahalliy yahudiylardan ham vakillar bor edi. Mazkur syezdni faqat musulmonlar syezdi emas, balki butun Turkiston xalqlari syezdi deyish mumkin. 1917-yil 1-dekabrda Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolari xalqqa murojaatnoma e'lon qildi. Turkistondagi barcha aholi irqi, millati, dini, jinsi yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, yakdillikda hamjihatlikdagi davlat edi. Biroq turgan gap ediki, Muxtoriyatdagi bu o'zgarishlar sovet hokimiyatiga yoqmas edi. O'lkada o'rnashib olgan Bolsheviklar Turkiston Muxtoriyati hukumatini o'zlariga katta xavf deb bildilar. Shuning uchun ham Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari Sovetlarining 1918-yil 19-26-yanvarda Toshkenda bilan favqulodda syezdida muxtoriyat hukumatiga munosabat asosiy o'rin egalladi. 1918-yil 30-yanvarda Muxtoriyatni tugatish uchun harbiy harakatlar Toshkendagi Bolsheviklar buning uchun qizil gvardiyachilar ortyadlari va arman dashnoqlaridan foydalandilar.

Milliy matbuotning yozishicha 31-yanvar (yangi hisob bilan 13-fevralda) janglar boshlandi. Turkiston o'lkasi XKS 14-fevralda Farg'ona viloyatini harbiy holatda deb e'lon qildi. Dastlabki, janglarda muxtoriyat qo'shinlaridan tashqari mahalliy aholi ham qatnashdi. Asosan, bolta, chiqish, ketmon bilan qurollangan xaloyiq soni 10000 kishiga yetdi. Shunga qaramay qizil armiya qo'shinlariga teng kela olishmadi. Shu orada muxtoriyatchilar o'rtasida parokandalik yuz berdi. Fevralda ulamolar tazyiqi bilan Mustafo Cho'qay iste'fo berdi va ba'zi vazirlar singari Qo'qonni tark etdi. Hukumatning boshqa a'zolari keyinchalik qo'lga olindi. Qo'qon qo'rboshisi Kichik Ergash 18-fevraldan boshlab Muxtoriyat hukumatini qo'lga oldi. 19-fevralga o'tar kechasi Toshkendan Turkiston o'lkasi harbiy komissari Ye.Perfilyev boshchiligida piyoda, otliq, arteriliya qismlaridan iborat 11 eshalon kelib tushdi. Uch kun davomida qizil armiya muxtoriyatga snaryadlar yog'dirdi. 10mingdan ziyod kishi halok bo'ldi.

Shunday qilib 1918-yil 19-fevralda Turkiston Muxtoriyati barham topdi. „Ulug' Turkiston" gazetasi yozishicha 20-fevral eski hisob bilan (7-fevral) kuni Xo'jand tarixining eng ayanchli kuni edi. Bunda armanlar ayricha harakat olib bordilar. Gazetadagi ushbu maqola „Xo'jand -hozir o'liklar shahri" degan ibora bilan tugaydi. Turkiston muxtoriyati hukumati harbiy kuchlari oz bo'lganligi va yaxshi qurollanmaganligi qizil gvardiyachilar hujumiga dosh bera olmadilar. 1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahrida Rus-Osiyo banki binosida Bolsheviklar tomonidan orlangan „tinchlik shartnomasi" imzolandi. [5]

Turkistondagi Muxtoriyatchilik harakati 1917-yil mart-noyabr oylarida mashaqqatli yo'lni bosib o'tdilar. Jahondagi yangi siyosiy vaziyat hamda Rossiyadagi voqealardan ruhlangan Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlari faol harakat olib bordilar. Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zolari va Milliy majlis a'zolari bo'lgan taraqqiyparvarlarini aksariyati bu yo'lda o'z hayotini fojiali yakunladilar. Xatto sovet hokimiyati va Bolsheviklar bilan hamkorlik qilganlari ham keyinchalik qatag'on

qilindilar. Xorijga chiqib ketgan vatandoshlarimiz esa turli josus va sotqinlar tomonidan yo'q qilindi. Kommunistik mafkura ular to'g'risidagi tarixiy haqiqatni soxtalashtirib, ularni xalq xotirasidan yo'qotish uchun barcha vositalarni ishga soldi.

Xulosa , o'rnida aytadigan bo'lsak, 1917-yil 27-nobarda tuzilgan Turkiston Muxtoriyati 1918-yil 19-fevralda tugatildi. Muxtoriyat atiga 72 kun umr ko'rdi. Jadidlarning xalqni ma'naviy jihatdan yuksaltish, mustaqil davlatlar qatorida ko'rish orzusi o'zini oqlamadi. Keyinchalik Turkiston Muxtoriyati mohiyati soxtalashtirilib , uni tor ma'noda Qo'qon Muxtoriyati deb atadilar. Turkiston xalqlari va jadidlarning azaliy orzusi bo'lgan mustaqil suveren-demokratik davlat tuzish go'yalari barbod bo'ldi. Qonga botirildi. Sovetlar Turkiston Muxtoriyati tor-mor etishda oddiy aholini ham ayashmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Q.Rajabov, M.Haydarov ,, Turkiston tarixi '' 32-bet, Toshkent 2002
- [2] S.Azamxo'jayev ,, Turkiston muxtoriyatini 116-bet Toshkent ,, Ma'naviyat ''2000
- [3] Q.Rajabov ,, Turkiston Muxtoriyati tarixi'' 96 106- bet ,, Fan '' nashriyoti 2023
- [4] B.Hasanov, N.Karimov, S.Ahmedov, B.Irzayev ,, O'zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston Muxtoriyati o'rni va roli '' 78-bet , ,, Toshkent '' 2017
- [5] //http//.uz.wikipediya .uz